



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 20-iyul, shanba,
85 (23.962)-son

**KUN
HIKMATI**

Iste'dodsiz bola
yo'q, e'tiborsiz
ota-onalar bor,
xolos

Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!

Prezident Shavkat Mirziyoyev 18-iyul kuni "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" qaror qabul qildi.

Bu yilgi bayram "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, shuningdek, "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" bo'yicha qabul qilingan davlat dasturi bilan uyg'un holda **"Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!"** degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlaridan iborat bo'ladi.

Buning uchun atqili ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san'at arboblari, taniqli sportchilar, keng jamoatchilik vakillaridan iborat targ'ibot guruhlarini tashkil etiladi.

Mustaqillik bayramini yuqori saviyada nishonlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi:

yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini yetakchi o'rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo'lidagi amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar, mehnatkash va bag'rikeng xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida mahallalar, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar o'tkazish;

keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish, "yashil" va raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan yirik dastur va loyihalar hamda bu borada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni aniq hayotiy misollar orqali keng yoritish;

sud-huquq tizimini isloh etish, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, mahalla tizimini xalqimizga yanada yaqinlashtirish yo'lidagi doimiy sa'y-harakatlar va ularning samarasi haqidagi targ'ibot ishlarini yanada kuchaytirish;

yurtimizda do'stlik va hamjihatlik muhiti tobora mustahkamlanib, mintaqamizdagi yaxshi qo'shniçilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori yuksalayotgani, do'st va hamkorlarimiz safi kengayib borayotganini

chuqur tahlillar asosida ko'rsatib berish;

navqiron avlodga Yangi O'zbekistonning kelajagi sifatida alohida e'tibor qaratilayotgani, yoshlar bilan ishlash bo'yicha noyob tizim yaratilishi natijasida ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha yurtimizda shakllangan samarali va ta'sirchan tizim mohiyatini ochib berish;

sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalari rivojlantirish, nuroniylar va xotin-qizlarga doimiy g'amxo'rlik ko'rsatish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglik bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar mazmuniga alohida e'tibor qaratish;

davlatimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo'lgan O'zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy va jangovar qudratini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarini keng targ'ib etish;

Mustaqillik bayrami munosabati bilan keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlarga kiritilgan hamda ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlarini o'tkazish;

Vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo'lda jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan ota-bobolarimizning xotirasini yod etish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

"Ona diyori — ranglar jilosida", "Vatan uchun yashaylik!", "Eng ulug', eng aziz" kabi an'anaviy ko'rik-tanlovlari, yurtimiz istiqlolini tarannum etuvchi eng yaxshi qo'shiq va musiqa asarlari tanlovlarining yakuniy bosqichi o'tkaziladi.



Hokim Xitoyda o'qiyotgan talabalar bilan uchrashdi

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Xitoy Xalq Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bir guruh talaba-yoshlar bilan uchrashdi.

Bugungi kunda viloyatimiz yoshlarining 200 ga yaqini Xitoyda o'qimoqda. Uchrashuvda ayni damda yozgi ta'tilda bo'lgan 30 nafarga yaqin yoshlar ishtirok etdi.

Erkinjon Turdimov keyingi yillarda O'zbekiston-Xitoy munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilib, Xitoy provinsiyalari va Samarqand viloyati o'rtasidagi hududlararo hamkorlikni mustahkamlash borasida samarali ishlar olib borilayotganini aytdi. Ta'kidlanishicha, ayni paytda 154 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yana 118 ta loyihani ishlab chiqish bo'yicha muzokaralar olib borilyapti.

Ta'lim tizimi ikki davlat o'rtasidagi gumanitar hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Biz xitoylik hamkorlarning yoshlarimizni ta'lim va malakasini oshirishdagi amaliy sa'y-harakatlarini yuksak qadrlaymiz, - dedi viloyat hokimi. - Har biringiz mamlakatimizning, xususan, Samarqandning Xitoydagi vakilisiz. Siz xitoyliklarga ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatimizni ko'rsatib, o'qiyotgan hududimizda o'z yo'nalishingiz bo'yicha tajriba to'plashingiz, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga hissa qo'shsangiz, ayni muddao bo'lardi.

Viloyat hokimi uchrashuvning har bir ishtirokchisi bilan suhbatlashib, ularning muammolari va takliflarini tingladi. Ikki xalq va davlatni bir-biriga yaqinlashtirish, azaldan ildiz otgan munosabatlarni asrab-avaylash va mustahkamlashdek ezgu ishni talaba-yoshlar davom ettirayotganini ta'kidladi.

Xitoyning Shensi provinsiyasi Sian shahridagi Shimoliy G'arbiy qishloq va o'rmon xo'jaligi universitetining iqtisodiyot va menejment fakulteti doktorantura bosqichida tahsil olayotgan, - deydi ishtirokchi Zohidjon Xayrullayev. - Uchrashuvda viloyat hokimi biz talaba-yoshlarga katta ishonch bildirdi. Shaxsan menga Xitoydagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, yurtimizdan borayotgan tadbirkorlar bilan xitoylik ishbiarmonlar o'rtasida tarjimonlik qilishimni, har ikki davlatga ham investorlar jalb qilishda faol bo'lishimni aytdi.

Viloyat rahbarining kelgusi hafta Szyansu provinsiyasining Nankin shahrida hozirda Xitoyda bo'lib turgan yoshlar bilan uchrashishi belgilangan.

Uchrashuv yakunida Erkinjon Turdimov xorijiy davlatlar, jumladan, Xitoyda ta'lim olayotgan barcha talabalarining ism-shariflarini o'z ichiga olgan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha topshiriq berdi. Shahar va tumanlar rahbarlari esa onlayn va oflayn rejimda ular bilan vaqti-vaqti bilan uchrashib, muloqot qilib turadigan bo'ldi.

To'liq SIDDIQOV.

Davlat xizmatchilarining odob — axloq qoidalari bor

Samarqand davlat universitetida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari" bo'yicha o'quv-seminar o'tkazildi.



Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali hamda viloyat hokimligi tashabbusi bilan tashkil etilgan seminar davlat fuqarolik xizmatchilari rahbarlari, ularning o'rinbosarlari ishtirok etdi.

Tadbirda davlat xizmatchilarining namunaviy odob-axloq qoidalari, kasbiy madaniyati, xizmat faoliyati hamda

xizmatdan tashqari vaqtlardagi yurish-turish, tashqi ko'rinish va kiyinish odobiga rioya etishi, shuningdek, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan munosabati bo'yicha tavsiyalar berildi.

Mazkur seminardan ko'zlangan maqsad davlat xizmatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish, davlat xizmatchilarining axloq qoidalarga zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olish, - deydi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali bosh mutaxassisi F.Ahadov. - Rahbar nafaqat tashqi ko'rinishi bilan, balki go'zal xulqi, kishilarga muomala va munosabati bilan ham boshqalarga ibrat bo'lishi lozim. Davlat xizmatidagi odob-axloq qoidalari aynan shu jihatlarga alohida urg'u berilgan.

Seminar yakunida tinglovchilar olgan bilimlari yuzasidan test sinovlari topshirdi.

B.MUSTANOV.

Qaror va ijro

Keyingi yillarda boshqaruv shakli bir necha bor o'zgarib, faoliyati izga tushib ketmagan mahalla boshqaruvi tuzilmasi nihoyat joriy yildan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qo'yilgan talab va bugungi davr mezonlari asosida yangicha shaklda tashkil etildi. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 21-dekabrda qabul qilingan mahalla boshqaruv tizimini takomillashtirish va "mahalla yettilligi" faoliyatini yo'lga qo'yishga doir farmon va qarori bilan mahallalar faoliyatini muvofiqlashtirib boruvchi yangi organ — O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamda uning viloyat va tumanlardagi bo'linmalari tashkil etildi.

"MAHALLA YETTILIGI": YANGI TIZIM SAMARA BERDIMI?

Mahallani qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika, viloyatlar va tumanlar (shahar) kengashlari tashkil etilib, Respublikaga Bosh vazir, hududlarga bevosita viloyat va tuman (shahar) hokimlari rahbar etib belgilandi. Kengash tarkibiga "mahalla yettilligi"ga kiruvchi tashkilotlar rahbarlari kiritilib, vertikal tizim ham yaratildi.

Endilikda mahallada rais, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim, profilaktika va soliq inspektorlari faoliyat yuritadi. Mahalla aholisiga 67 turdagi yordam va subsidiyalar "mahalla yettilligi"ning kollegial qarori asosida amalga oshiriladi. Mahalla budjetini shakllantirish va uni infratuzilmani yaxshilashga yo'naltirish ham "mahalla yettilligi" qaroriga bog'liq bo'ladi. Eng muhimi, Investitsiya dasturlarini shakllantirishda "mahalla yettilligi" tomonidan bildirilgan takliflar inobatga olinadi.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi ham ana shu yangi tizim asosida faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston — Finlandiya pedagogika instituti ilk bitiruvchilarini mustaqil hayotga kuzatdi



O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining birinchi bitiruvchilariga diplom topshirish marosimi o'tkazildi. Unda bitiruvchi talabalar, ularning ota-onalari va professor-o'qituvchilar qatnashdi.

Mamlakatimizda pedagogika ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlash maqsadida 2022-yil 21-iyun kuni Respublika Prezidentining tegishli qarori bilan Samarqandda O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti tashkil etilgandi, - dedi institut rektori Shahzoda Negmatova. - O'tgan davr mobaynida institut faoliyati tizimli tashkil etilib, unda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, fizika va astronomiya, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi, kimyo, biologiya, tarix, psixologiya, jismoniy madaniyat, o'zbek tili va adabiyoti kabi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ochildi. Hozirgi vaqtda 9 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda.

Bugun institutning san'atshunoslik fakultetidan 128 nafar, jismoniy madaniyat, sport va maktabgacha ta'lim fakultetidan 398 nafar, jami 526 nafar yoshlar bakalavr, 9 nafar yigit-qizlar esa magistrlik diplomiga ega bo'ldi.

Institutni bitirayotgan talabalarning 86 foizi ish bilan ta'minlangan, 11 nafari xorijiy til sertifikatini qo'lga kiritib, o'qishini magistratura bosqichida davom ettirish uchun ariza topshirgan.

Xurshida ERNAZAROVA.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Davriy fidoyilari

YURAGING
URIB TURSIN,
BOLAJON!

Yurtimizda umrini ezgulikka bag'ishlagan, fidokorona mehnati bilan Vatani ravnaqiga hissa qo'shayotgan matonat sohibalari ko'p. Samarqand viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bolalar kardiologiyasi bo'limi mudiri Niso Turdiyeva ana shundaylardan biri.



Kardiolog Rossiyaning Moskva shahridagi Bakulev nomidagi kardiologiya tibbiyot markazida qariyb o'n yil faoliyat yuritgan. 2019-yildan buyon Samarqandda.

Bir qarashda nima bo'libdi, deyish ham mumkin. Avvalo, raqamlarga e'tibor qiling, birgina 2022-yilda 600 ga yaqin bolada yurak operatsiyasi o'tkazilgan. Buni 4 ga ko'paytirsa, qancha bo'ladi, 5 baravari-chi?

Demak, yuragida nuqson bor shuncha bolalar Niso Turdiyeva va uning jamoasi ko'magi bilan sog'lomlashtirilgan.

N.Turdiyeva 2003-yil Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga o'qishga kirib, keyinchalik o'qishni Sankt-Peterburg tibbiyot akademiyasiga ko'chirgan. Bakalavr diplomini olgach, Bakulev nomidagi yurak-qon tomir jarrohligi markaziga o'qishga borib, 9 yil davomida ham o'qib, ham ishlab, nomzodlik dissertatsiyasini yozgan.

N.Turdiyeva O'zbekistonga qaytishining o'zi ham alohida bir hikoya.

Rossiyaga ketishimdan oldin kardiologlikni xorijda mukammal o'rganib, O'zbekistonga qaytish va sohani rivojlantirish maqsadim bo'lgan, - deydi u. - Kardiologlik markazida ishlaganimda, O'zbekistondan kelgan bemorlarni ko'p ko'rdim. Bemor bolalarning ahvoli og'ir, moddiy sharoiti esa haminqadar. Ularni o'zimizda operatsiya qilsa bo'ladi-ku, deb o'ylaganman. Qaytishimning sabablaridan biri shu...

Ishlab yurganimda 2000 AQSh dollari miqdorida oylik olardim. Qaytishimni aytganda, Rossiyadagi hamkasblarim hayron qolishgan, albatta. Boshida ishlab keta olarmikinman, deb o'zimga ishonmaganman. Hozir esa bu yo'lni tanlaganimga hecham afsuslanmayman.

Niso Turdiyeva 2021-yilda II darajali "Salomatlik" ordeni bilan taqdirlangan.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

XATLOV VAZIFALARNI KO'RSATIB BERDI

Bugungi kunda viloyatda 1126 mahalla bo'lib, 821 mingta xonadon, 1 million 34 mingdan ortiq oilada 4 million 172 ming aholi istiqomat qiladi.

Mahalla boshqaruv tizimi o'zargach, viloyatdagi 16 ta tuman, shahar, 64 sektor va 1126 mahallada aholi muammolarini hal qilish, "mahalla yettilligi" hamkorligini ta'minlash, yoshlar bilan ishlash, aholi bandligiga erishish tizimini samarali tashkil etish yo'nalishlarida tashkiliy-uslubiy ko'maklashish ishlari yo'lga qo'yildi, - deydi O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyat boshqarmasi boshlig'i Sherali Yo'ldoshev. - Dastlab barcha mahallalarning demografik ko'rsatkichi va aholi turmush tarzi, ijtimoiy soha obyektlari holati bo'yicha 25 yo'nalish, 401 ta ko'rsatkichdan iborat balans shakllantirildi. Xatlov natijasida aniqlangan 90 mingdan ortiq ishsiz hamda umumta'lim maktablarini bitirayotgan 48 ming nafar bitiruvchilarning bandligini ta'minlash bo'yicha mahalla, sektor, tuman va viloyat kesimida bandlik dasturlari tayyorlandi. Shuningdek, mahallalarni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish, "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish hamda sektorlar rahbarlari tomonidan "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash tizimini tubdan takomillashtirish masalalari xalq deputatlari mahalliy kengashlar sessiyalarida muhokama etilib, qarorlar qabul qilindi. Mahallalarning har birida ombor kitoblari shakllantirildi va ularda ishsiz fuqarolar bandligini ta'minlash, yoshlarga yer ajratish, xonadonlarni obod qilish, ko'chalarda hasharlar tashkil etish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar va ijro mudatlarini belgilandi, har bir ko'cha "mahalla yettilligi" a'zolariga taqsimlandi. Shu bilan birga, mahallalarni raqamlashtirish orqali aholiga qulaylik yaratish, mahalladan turib davlat va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, barcha davlat organlariga murojaat qilish va ma'lumotlarning yagona bazasini yuritish maqsadida "Raqamli mahalla" platformasi yaratilib, hozirda ma'lumotlar bazasi shakllantirilmogda.

"Mahalla yettilligi"ning vazifalari aniq belgilab olinishi, har bir xodimning zimmasidagi mas'uliyatni his qilgan holda faoliyat olib borishi natijasida mahalladagi muammolar birin-ketin hal etila boshladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yilning birinchi yarmida "mahalla yettilligi", sektor rahbarlari, tijorat banklari va hokimliklar hamkorligida viloyat bo'yicha 63 ming nafar ishsiz fuqarolar bandligi ta'minlandi. Jumladan, 40 mingga yaqin ishsiz doimiy ish o'rinlariga joylashtirilgan bo'lsa, 5897 nafari kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilgan, 3909 nafariga kredit va 459 nafariga subsidiya mablag'lari ajratilgan. 5034 nafar fuqaro pillachilikka jalb etilgan, 7837 nafar ishsiz esa o'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan. 6575 nafar yoshlarga dehqonchilik qilib, daromad topishi uchun 7 ming gektar yer maydoni ajratilgan.

Ayni paytda yana 33 mingdan ortiq aholini ishga joylashtirish yoki doimiy daromad manbaiga ega bo'lishini ta'minlash vazifasi turibdi.

HAR BIR MAHALLADA 10 TA MIKROLOYIHA

"Sayxunobod" tajribasidan kelib chiqib, viloyatdagi 38 mingga yaqin xonadonda intensiv bog'dorchilik, parrandachilik, baliq yetishtirish, asal-ariqchilik yo'lga qo'yildi. Shuningdek, 2673 ta loyiha shakllantirilib, ularni ishga tushirish orqali 5346 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Davlatimiz rahbarining topshiriqlari asosida har bir mahallada kamida o'ntadan mikroloyihalarni amalga oshirish vazifalarini belgilab olganmiz, - deydi Sherali Yo'ldoshev. - Bugunga qadar qariyb 131 milliard so'mlik 7464 ta mikroloyiha o'z faoliyatini boshladi. Bundan tashqari, tomorqadan unumli foydalanishni tashkil etish orqali 7043 ta kambag'al oila qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'ldi. Bu oilalar

"MAHALLA YETTILIGI":
YANGI TIZIM SAMARA BERDIMI?

uchun 470 ta issiqxona qurib berildi, 106 tasiga 843 ta asalari uyalari, 409 tasiga 86 ming bosh parranda, 1894 tasiga 14237 bosh chorva mollari tarqatildi.

Mahallalarda oilalarni qo'llab-quvvatlash bilan birga aholi noroziligiga sabab bo'ladigan muammolar "mahalla yettilligi" va sektor rahbarlari hamkorligida o'rganilib, imkon qadar hal etish choralari ko'rilmogda. Xususan, yil boshidan buyon 2443 ta muammo va kamchilik aniqlanib, ularning 1785 tasi yoki 73 foizi hal etildi. Ya'ni, 362 kilometr tuproq yo'llardan 342 kilometriga shag'al yotkizildi, 42 kilometri asfaltlandi. 432 ta transformator punkti ta'mirlandi, 3259 ta simyog'och almashtirildi, 2210 ta qo'shimcha ustun o'rnatildi, 118 kilometr SIP kabellar tortildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj 145 mingdan ortiq aholiga yordam ko'rsatildi. Bundan tashqari, bugungi kunga qadar viloyatdagi 33 mahalla uchun yangi bino qurildi, 18 tasi joriy, 12 tasi kapital ta'mirlandi, 13 tasi rekonstruksiya qilindi.

OG'IR MAHALLALAR - E'TIBORDA

Viloyatda bu yil yana bir yaxshi tajriba yo'lga qo'yildi. Ya'ni, har bir tuman va shahardagi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan og'ir ahvoldagi hamda aholi murojaatlari ko'p qayd etilgan bittadan mahalla tanlab olinib, ularning muammolarini hal etish bo'yicha "Harakatlar rejasini" ishlab chiqilib, amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Natijada shu paytgacha ushbu mahallalardagi 65 kilometr yo'l tartibga keltirildi, 30 ta transformator ta'mirlanib, 3 tasi yangilandi. 315 ta simyog'och beton tayanchga almashtirildi, 50 ta tungi yoritish chiroqlari o'rnatildi. 1070 ta xonadon ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

Samarqand shahar Humo mahallasining 4 ming nafarga yaqin aholisiga xizmat ko'rsatuvchi qishloq vrachlik punkti ta'mirlash uchun Islom taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan 1 milliard so'm ajratildi. Paxtachi tumani Qaynarbuloq mahallasidagi, kuchli sel yuvib ketgan ko'priklar ta'mirlandi. O'zbekiston mahallalari uyushmasi mablag'lari hisobidan Jomboy tumanida Qo'ng'iro't va Bulung'ur tumanida Lalmikor mahallalari uchun yangi bino qurilmogda. Umuuman, joriy yilda viloyatdagi o'z xizmat binosiga ega bo'lmagan yoki binosi ta'mirtalab va kapital ta'mirga muhtoj 55 ta mahalla yangi binoga ega bo'ladi.

Aholi murojaatlari asosida Kattaqo'rg'on tumani-dagi Qo'shho'vuz mahallasida yangi konstruksiyali "Yoshlar markazi" qurilishi uchun 400 million so'm yo'naltirildi. "Besh tashabbus" olimpiadasida g'olib bo'lgan jamoalar uchun ushbu jamoalar a'zolari yashaydigan mahallalardan sport maydonchalari qurib berilishi ham bugun yaxshi samara bermoqda. Viloyatda ham yigirmaga yaqin mahallada shunday sport maydonchalari tashkil etildi.

"MAHALLA YETTILIGI" BIR MUSHT BO'LISHI KERAK

Avvallari mahallada uch-to'rt nafar xodim ishlari, hududdagi aksariyat masalalar hokimlik va boshqa idoralarda hal etilardi. Endilikda mahalla fuqarolar yig'inlarining nafaqat tarkibi, balki faoliyat ko'lami, vazifalari ham kengaydi. Bugun aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlik qilishi uchun qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bilan shug'ullanish, ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlam manfaatlarini himoya qilish, xavfsizlik va infratuzilmani yaxshilash kabi muhim vazifalar mahallaning zimmasida. Bu vazifalarni beqam ko'st bajarish esa "mahalla yettilligi"ning hamijhatligi, bir jamoa bo'lib ishlashiga bog'liq, albatta. Mahalla raisi esa olti xodim ishini ham muvofiqlashtirib, hudud uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

"Mahalla yettilligi"ning kunlik, haftalik, oylik, choraklik ish rejalarini, namunaviy bir oylik tadbirlar dasturi tayyorlanib, haftaning har bir kuniga ramziy nomlar berilgan, - deydi Sherali Yo'ldoshev. - Xususan, dushanba kuni - madaniyat va san'at, seshanba - ommaviy va milliy sport, chorshanba - ma'naviyat va ma'rifat, payshanba - jinoyatchilikning oldini olish, juma - salomatlik, shanba - tadbirkorlik va bandlik kunlari etib belgilandi. Va o'z navbatida har bir kunga "mahalla yettilligi"ning biri mas'ul. Bundan tashqari, har bir mahalla raisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi maktab direktori bilan hamkorlikda ishlab, o'quvchilarning darslarda qatnashishi va fanlarni o'zlashtirishini nazorat qiladi. Democchimanki, har bir kun, har bir soat hisobli, bajariladigan vazifalar bor.

Ish ana shu mezonlar asosida tashkil etilgan mahallalarda "yettillik" faoliyati samarasi yaqqol ko'zga tashlanmogda. Lekin ayrim mahallalarda xodimlarning rais bilan bamaslahat ish yuritmasligi yoki o'z bilganicha ish tutishi nafaqat o'sha xodim, balki "yettillik" faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmogda. Albatta, bunday holatlar hokimliklar, sektor va mutasaddi idoralar rahbarlari bilan hamkorlikda ko'rib chiqilib, kamchiliklar bartaraf etilmogda. Bundan tashqari, Davlat boshqaruv akademiyasi dasturi asosida "mahalla yettilligi" uchun tashkil etilayotgan o'quv seminarlar ham o'z samarasini bermoqda. Dastlab fevral oyida barcha xodimlari o'qitilgan edi. Iyun oyida esa 1108 nafar mahalla raisi "Masofaviy kurslar" platformasi orqali o'z kasbiy mahoratini oshirishdi. Viloyat hokimligi huzuridagi mahalla fuqarolar yig'ini raislari malakasini oshirish markazida ham mutazam o'quvlar tashkil etilmogda.

G'olib HASANOV.

Noqonuniy yer o'zlashtirish 335 foizga oshdi

Prezidentimizning yer resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi farmon va qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatda doimiy ravishda yer nazorati tadbirlari o'tkazilib kelinmogda. Joriy yilning olti oyida yer munosabatlari bilan bog'liq qonunbuzilish holatlari o'rganilganda, 1912 holatda 487,9 gektar yer maydoni turli maqsadlarda foydalanish uchun o'z boshimchalik bilan egallab olingani aniqlandi. Achinarlisi, o'z boshimchalik bilan egallangan yerlarning 420 gektari yoki 86 foizi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan bo'lib, 220 gektari sug'oriladigan yerlar hissasiga to'g'ri keladi.

Egallangan yerlarning 21,8 gektari Oqdaryo, 55 gektari Kattaqo'rg'on, 50 gektari Qo'shrabot, 95 gektari Payariq, 79 gektari Past Darg'om, 42 gektari Paxtachi, 53 gektari Nurobod, 30 gektari Urgut tumaniga to'g'ri keladi.

Aniqlangan holatlarni bartaraf etish yuzasidan agentlikning tuman bo'limlari tomonidan yer qonunbuzilishini sodir etgan shaxslarga berilgan tushuntirish va yozma ko'rsatmalar natijasida 602 holatda 192,4 gektardagi yer qonunbuzilish holatlari ixtiyoriy bartaraf etildi. 1,52 gektardagi 263 ta noqonuniy qurilmalar buzildi.

Yer qonunbuzilishini ixtiyoriy bartaraf etmagan 1001 holat bo'yicha sudga da'vo arizalar kiritildi. Prokuratura organlariga taqdim etilgan ma'lumotlar asosida 85 holat bo'yicha jinoyi ish qo'zg'atildi va

54 ta ish bo'yicha tergov davom etmogda.

Sud idoralarga kiritilgan 1001 ta da'vo arizaning 460 tasi yuzasidan sudning hal qiluv qarori chiqarilib, majburiy ijro byurosiga qaratilgan bo'lsa-da, ijro etilmayapti.

Ma'lumot uchun, sudlarning hal qiluv qarorlari Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlarida 16 tadan, Toyloqda 19 ta, Oqdaryoda 50 ta, Bulung'urda 36 ta, Jomboyda 47 ta, Ishtixonda 16 ta, Kattaqo'rg'on 35 ta, Qo'shrabotda 30 ta, Narpayda 5 ta, Payariqda 50 ta, Past Darg'omda 29 ta, Paxtachida 22 ta, Samarqandda 27 ta, Nurobodda 22 ta va Urgut tumanida 40 taga to'g'ri keladi.

Misol uchun, Past Darg'om tumanida "Samarqand kamalak invest" MChJga qarashli 0,15 gektar yer maydonini Bog'ishamol ma-

hallasida yashovchi fuqaro Samad Azizov o'z boshimchalik bilan egalab, 130 kvadrat metr maydonda uy-joy va boshqa qurilmalar qurgan. O'z boshimcha qurilma bo'yicha kadastr agentligi tomonidan 51 million so'm jarima jazosi, majburiy ijroga qaratilgan bo'lsa-da, jarima undirilmagan. Noqonuniy qurilishni buzdirish va yer maydonini qaytarish yuzasidan sudga da'vo ariza joriy yilning 29-yanvarida kiritilib, sud tomonidan mazkur da'vo 18-martda ko'rib chiqilib, qanoatlantirildi. Ammo uch oydan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, ijrosi ta'minlanmagan.

Yana bir holatda Bulung'ur tumanida tuman hokimligi zaxirasida bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan 0,19 gektar yer maydoni Isori o'roqli mahallasida yashovchi fuqaro Ravshan Burxonov tomonidan o'z boshimchalik bilan egallashib, 211 kvadrat metr maydonda uy-joy qurilgan. Bu ish bo'yicha ham kadastr agentligi tomonidan 51 million so'm miqdorida jarima jazosi qo'llanilib, majburiy ijro byurosiga berilgan bo'lsa-da, jarima undirilmagan. Noqonuniy qurilishni buzdirish va yer maydonini qaytarish yuzasidan sud qarori ham uch oydan ortiq vaqtdan buyon ijro etilmayapti.

Yerlarni noqonuniy egallab, qurilish qilgan shaxslarga qo'llanilgan

jarimalar undirilmasa, noqonuniy qurilishlari buzdirilmasa bu kabi holatlar ortib boraveradi.

Misol uchun, bu yil yerlarni o'z boshimchalik bilan egallanishini 2023-yilning mos davri bilan taqqoslaganda, 1398 taga yoki 342,4 gektarga oshgan. Bunga asosiy sabab xalq tilida "aksiya" deb noto'g'ri talqin qilinayotgan yangi qonun loyihasini eshitib, hatto ayrim fuqarolar "Qurilishi mavjud bo'lsa, egalik huquqi e'tirof etilar ekan", degan noto'g'ri fikrga kelib, bo'sh turgan yerlarga imorat qurib olishga harakat qilmogda.

Sektor rahbarlari o'z hududidan noqonuniy qurilgan qurilishlarni buzdirish, o'z boshimchalik bilan egallangan yer maydonlarini qaytarish yuzasidan chiqarilgan qarorlar ijrosini Majburiy ijro byurosi va tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ta'minlash yaxshi bo'lardi.

Kadastr agentligining hududiy bo'limlari tomonidan yil davomida yer qonun buzilish holatlari yuzasidan 1017 ta ma'muriy ish ko'rilib, 30 milliard 109 million so'm miqdorida jarima jazolari qo'llanilgan. Majburiy ijro byurosida 231 ta holatda 9 milliard 376 million so'm jarima undirilmagan qolmogda.

Fozil XUDOYQULOV,
Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i.

Viloyat hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiya yig'ilishida Paxtachi tumanidan tushgan takliflar ko'rib chiqildi. Komissiya qaroriga ko'ra, tuman-dagi 1599 ta nomsiz ko'chani (tor va berk) nomlash hamda davlat reyestri bazasidan chiqariladigan 776 ta ko'cha bo'yicha takliflar tasdiqlandi.

NOMSIZ
OBYEKTLARGA
NOM BERILDI

Geografik obyektlarni O'zbekiston xalqining milliy an'analari va mentalitetiga yot bo'lgan nomlar bilan nomlash va qayta nomlashga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rildi. Masalan, tumandagi tor va berk ko'chalarga Mavlono Lutfiy, Amir Temur, Bibixonim, Zahiridin Muhammad Bobur kabi tarixiy shaxslar nomi yoki Yoshlik, Bog'iston, Marhamat, Afsona, Zomin, Zarkent singari nomlar berildi.

Shuningdek, viloyat komissiyasi qarori bilan joriy yilning iyun oyi boshida Paxtachi tumanidagi nomsiz istirohat bog'i Yoshlar saylohi deb ataldi. Bundan tashqari, Nurobod tumanidagi nomsiz qabristonlarga G'o'bdin, Tutli, Sonsuvoq ota, G'arovli kabi nomlar berildi. Qo'shrabot tumanidagi 24 ta nomsiz qabriston ham komissiya qarori bilan nomlandi.

Xurshida ERNAZAROVA.

Dunyo bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining reytingini baholaydigan mustaqil tashkilotlar mavjud. Unda muassasalarining kamida uch yillik ko'rsatkichlari – ish beruvchilarning bahosi, ta'lim sifati, bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligi, xorijiy talabalarining ulushi, professor-o'qituvchilarning malaka oshirganligi, xorijda ilmiy daraja olganligi, xo'jalik shart-nomalarining bajarilayotganligi kabi bir qator talablar inobatga olinadi.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti tashkil etilganiga ko'p bo'lmasa-da ilmiy salohiyatni 48 foizga yetkazdi. Boshqa oliy ta'lim muassasalaridan jalb qilingan professor-o'qituvchilar bilan hisoblaganda, institutimiz ilmiy salohiyati 50 foizdan oshadi. Masalan, Janubiy Koreyaning bog' dorchilik instituti professori issiqxonaga yo'nalishda talabalarga dars beradi. Bundan tashqari, Germaniyadan bir nechta professor-o'qituvchilarni jalb qilganmiz. Ular onlayn shaklda talabalarga dars o'tadi.

Har o'quv yili boshida kafedralar o'zlarining ilmiy yo'nalishdagi yo'l xaritalarini tuzishadi. Yil davomida ta'lim ushbu yo'l xaritada belgilangan rejalarning bajarilishini nazorat qiladi. O'quv yili oxirida professor-o'qituvchilar KPI tizimi orqali baholanib, yuqori natijalarga erishgan xodimlar munosib rag'batlantiriladi.

H-INDEKSI NIMA UCHUN KERAK?

Professor-o'qituvchilarning xalqaro tan olingan ilmiy bazalarda maqolalari chiqishi, h-indeksini doimiy oshirib borishini nazoratga olamiz. Bu nima uchun kerak? Birinchidan, dunyodagi olimlar bizni mana shu xalqaro bazalarda chiqqan maqolalarimiz orqali taniydi. Masalan, Scopus/WoS va boshqa ilmiy bazalardagi jurnallarda maqolalaringiz chiqqan bo'lsa, bu sizning profilingizda ko'rinadi.

Aytaylik, siz donli ekinlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borasiz. Xalqaro ilmiy bazaga qurg'oqchilikka chidamli donli ekinlar haqida maqola joylashtirgansiz, shu haqda ma'lumot izlaganlar sizning maqolangizga duch keladi. Agar ilmiy ishingizdan biror olim o'z maqolasida foydalansa, sizda bitta iqtibos paydo bo'ladi. Olimlar maqolangizdan qanchalik ko'p iqtibos olsa, h-indeksingiz shunchalik ortib boradi va bu profilingizda ko'rinadi. Scopus yoki boshqa xalqaro tan olingan bazalarda bir nechta maqolangiz bo'lib, ulardan faqat bittasidan iqtibos olingan bo'lsa, h-indeksingiz birga teng bo'lib turadi. h-indeksingiz oshishi uchun bazaga kiritilgan maqo-



Ilmiy salohiyat oliy ta'lim muassasalariga nima beradi?

laringizning hammasidan iqtiboslar olinishi kerak.

Shu o'rinda, h-indeksi nima uchun kerak, degan savol tug'iladi. Fundamental loyihalarni bajarish uchun h-indeks 3 dan kam bo'lmali kerak. Masalan, xorijlik olimlar bilan loyihalar bajarilmoqchi bo'lsak, ular birinchi navbatda bizning h-indeksimizni qidirib ko'radi.

DOLZARB MAVZULARDA ILMIY ISHLAR QILINYAPTI

Institutda qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, buxgalteriya, agronomiya, seleksiya va urug'chilik, dehqonchilik, savzavotchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, qishloq xo'jaligini avtomatlashtirish, mexanizatsiya, oziq-ovqat xavfsizligi, dorivor o'simliklar kabi yo'nalishlarimiz bor. Hozir oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu borada institutimiz xorijiy hamkorlar bilan xalqaro loyihalarni amalga oshirmoqda.

Agroinjeneriya kafedramiz olimlari kam resurs sarflaydigan texnologiyalar yaratish borasida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Misol uchun, ilgari bir gektar maydonga ishlov berishda bir vazifani bajaradigan texnikalar yaratilgan bo'lsa, endilikda bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajaradigan texnikalar paydo bo'lyapti. Ayni paytda institutimizga qarashli 13 gektar yer maydonida turli xil suv tejoychi texnologiyalar bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar bajarilayapti. Qaysi ekin uchun

qaysi suv tejoychi texnologiya mos tushadi, yomg'irlatib sug'orishmi yoki tomchilatib sug'orishmi, degan savolga javob izlanmoqda.

Institutimizda in-vitro laboratoriyasi ham tashkil etilmoqda. Laboratoriyadagi ishlar ko'proq yuqori tozalikda olib boriladi, hatto havo ham tozalana-di. Nima uchun? Bizda sabzavot ekinlarimizdagi muammo - bu virusli va zamburug'li kasalliklar hisoblanadi. Laboratoriyada virusli kasalliklardan xoli sabzavot ekinlarini yaratish yoki ko'paytirish ustida ilmiy ishlar olib boriladi. Masalan, biz oddiy kartoshka urug'ini xorijdan eksport qilamiz. Kartoshkachilik bo'yicha olimlarimiz bor, nega urug'likni chetdan keltiryapmiz, deydi. Buning asosiy sababi, kartoshkada virusli kasalliklarning mavjudligi. Virusli kasalliklar hosildorlikni uch yilda 60-70 foizgacha tushirib yuborishi mumkin. Janubiy Koreya bilan hamkorlikda in-vitro laboratoriyasida kartoshka urug'chiligini tashkil etish, mahalliy bozorga chiqarish va kadrlar salohiyatini oshirish borasida ishlar olib boryapmiz.

XORIJIY TILNI BILISH MUHIM

Bugungi kunda institutda 11 ta ixtisoslikda 60 nafar tayanich doktorant va mustaqil izlanuvchi tahsil olmoqda. Har o'quv yilida 25-30 nafar professor-o'qituvchilarning xorijda malaka oshirib kelyapti. Bu yil

talabalarimizdan 200 nafarini amaliyot o'tash uchun Angliya, Germaniya, Polsha kabi davlatlarga yuborish rejalashtirilgan bo'lib, ayni kunda ularning 165 nafari xorijda amaliyot o'tamoqda. Ular xalqaro darajadagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, shuningdek, chet tilini o'rganadi.

Bugungi ilmiy manbalarning 70-80 foizi ingliz tilida. Shuning uchun o'z sohasida yetuk olim bo'lmoqchi bo'lgan yoshlar xorijiy tilni bilishi kerak. Qolaversa, xorijda malaka oshirish yoki amaliyot o'tash uchun ham chet tilini bilish talab etiladi.

O'zbekistonda ilmiy ish qilayotganlarga xorijiy tilni bilish talabining qo'yilganligini qo'llab-quvvatlayman. To'g'ri, bu oson emas, ammo zamon talabi shuni taqozo etmoqda.

Institutimizda "Doktorantlar maktabi" bo'lib, unda o'qituvchilar, yosh olimlar o'zining tadqiqot natijasini professor-o'qituvchilarga yetkazadi. Ular o'z tadqiqoti haqida axborot berish bilan birga jamoa oldida ilmiy ishini ommaga yetkazishni ham o'rganadi. Yosh olim va tadqiqotchilarga yetakchi o'qituvchilar tomonidan maslahatlar beriladi. "Ushbu maktab"da har bir yosh olimga maslahat, motivatsiya va to'g'ri yo'nalish berib boriladi. Bunday tadbir har shanba kuni, har bir kafedra qoshida tashkil etiladi.

Bundan tashqari, institutda "STATA" kurslarimiz bo'lib, unda yetakchi o'qituvchilar yosh tadqiqotchilarga ilmiy ishni tahlil qilishni o'rgatadi.

TANLOVDA 23 TA LOYIHAMIZ MOLIALASHTIRILDI

Ayni kunda institutda to'rtta xalqaro loyiha ishlayapti. Shu bilan birga, milliy loyihalarimiz ham bor. Institutimizda mehnat qilayotgan 94 nafar professor-o'qituvchining 74 nafari ilmiy loyihalarga jalb qilingan. 50 nafardan ortiq talaba ham mazkur ilmiy loyihalarda ishtirok etyapti.

Joriy yilda 128 nafar talabamiz ilmiy loyihalari bilan "Ulug'bek vorislari" respublika tanlovida ishtirok etdi. Ularning 60 nafari tuman bosqichida, 12 nafari tanlovning viloyat bosqichida va 5 nafari respublika bosqichida g'olib bo'ldi.

Yaqinda viloyat hokimligi tomonidan startap loyihalar tanlovi e'lon qilindi. Tanlovda institutimiz yosh olimlari va talabalarining 23 ta loyihasi bevosita moliyalashtirishga tavsiya etildi, ya'ni 20 nafar talaba va uch nafar yosh o'qituvchimizning loyihalari tanlovda g'olib bo'ldi. Bu yutuqlar bevosita yoshlarimizni ilmiy yo'naltirayotganimiz natijasidir.

Bobur ESHONQULOV,
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti prorektori.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

"SAMARQANDDONMAHSULOTLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Samarqanddonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 8-avgust kuni (haftaning payshanba kuni) soat 10:00 da Samarqand shahri Ziyokorlar ko'chasi, 4-uy manzilida joylashgan "Samarqanddonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosi majlislar zalida o'tkaziladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBIDA:

1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash to'g'risida;
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi soni va shaxsiy tarkibini saylash to'g'risida;
3. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish;
4. Jamiyat raisini tayinlash.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish hamda yig'ilish o'tkazilishi haqida xabarnoma olish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2024-yil 24-iyul kuniga va umumiy yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2024-yil 2-avgust kuniga belgilandi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ma'lumot va materiallar bilan "Samarqanddonmahsulotlari" AJ da ushbu xabar e'lon qilingan kundan boshlab yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 8:00 dan 10:00 gacha tanishish mumkin.

Murojaat uchun telefon: +99866-239-55-04

Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.samdon.uz

Elektron pochta: samarqanddon@umail.uz

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

"JUMA ELEVATORI" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Juma elevatori" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 8-avgust kuni (haftaning payshanba kuni) soat 14:00 da Samarqand viloyati Past Darg'om tumani, Juma shahri, Fitrat ko'chasi, 2-uy manzilida joylashgan "Juma elevatori" aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosi majlislar zalida o'tkaziladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBIDA:

1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash to'g'risida;
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi soni va shaxsiy tarkibini saylash to'g'risida;
3. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari va taftish komissiyasi tarkibiga o'zgartirish kiritish;
4. Jamiyat boshqaruv raisini tayinlash.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish hamda yig'ilish o'tkazilishi haqida xabarnoma olish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasini 2024-yil 24-iyul kuniga va umumiy yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2024-yil 3-avgust kuniga belgilandi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ma'lumot va materiallar bilan "Juma elevatori" AJ da ushbu xabar e'lon qilingan kundan boshlab yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 11:00 dan 14:00 gacha tanishish mumkin.

Murojaat uchun telefon: +99866-465-15-27

Rasmiy veb-sayt: www.jumaelevatori.uz

Elektron pochta manzili: jumadon@mail.ru

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

"OQTOSHDON" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Oqtoshdon" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 9-avgust kuni (haftaning juma kuni) soat 10:00 da Samarqand viloyati Narpay tumani, J.Mirzayev ko'chasi, 2-uy manzilida joylashgan "Oqtoshdon" aksiyadorlik jamiyati ma'muriy binosi majlislar zalida o'tkaziladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBIDA:

1. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash to'g'risida;
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi soni va shaxsiy tarkibini saylash to'g'risida;
3. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish;
4. Jamiyat raisini tayinlash.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bulgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish hamda yig'ilish o'tkazilishi haqida xabarnoma olish huquqiga ega bulgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2024-yil 25-iyul kuniga va umumiy yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2024-yil 5-avgust kuniga belgilandi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ma'lumot va materiallar bilan "Oqtoshdon" aksiyadorlik jamiyatida ushbu xabar e'lon qilingan kundan boshlab yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 8:00 dan 10:00 gacha tanishish mumkin.

Murojaat uchun telefonlar:

+99866-240-10-74, +99866-240-10-75,

+99894-280-95-28

Elektron pochta manzili: oqtoshdon@mail.ru

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Xodjakulov Odil Kadirovichga (2017-yil 12-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Turaku-

lov Xatamga (2014-yil 21-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Muxsinov Abdunabiga (2006-yil 23-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga

murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Kurbanov Ilxomiddin Bekmurotovichga (2020-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasida marhum Tursunov Jamolga (2004-yil 14-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Normatov Murod To'ychiyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Andijoni mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Salimova Zuxraxon Xalimovnaga

(2012-yil 17-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 85-uy.

BEKOR QILINADI
Samarqand davlat tibbiyot institutidan 2014-yil 8-aprelda Juraev Sherali Tolibjonovich nomiga berilgan qayd raqami 418 bo'lgan klinik ordinaraning anesteziologiya va reanimatologiya mutaxassisligi bo'yicha to'la kursini o'taganligi to'g'risidagi guvohnoma yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Insofli o'g'rilar qayerdan chiqadi?

Yoxud ma'rifatni izlash emas, u bilan yashashimiz kerak

Mulohaza

Ha, gap yana kitob, aniqrog'i mutolaaning ahamiyati haqida. Maqolani biror taniqli insonning aforizmi bilan boshlamoqchi bo'ldim-u o'sha aqlli gapni miloddan avvalgi 384-322-yillarda yashab o'tgan yunon faylasufi Arastudan topganimdan keyin niyatimdan qaytdim. Hatto o'sha davrdan ham kitob o'qishga targ'ibot bo'lgan ekan. Demak, o'tgan asrlarda bu mavzuda aytilmagan gap yoki fikrning o'zi qolmagan. Qolaversa, agar muammo birgina targ'ibot bilan hal bo'lganida, hozir hamma kitobxon bo'lardi. Lekin qadimda qanday bo'lsa, bugun ham shunday, kitobxonlar kamchilik. Qolgan ko'pchilikni mutolaaga qiziqtirish uchun esa nasihatning o'zi kamlik qiladi.

Aytmoqchi bo'lgan fikrimiz to'liq va tushunarli bo'lishi uchun maqolani Nurobod tumanidagi kitobxon oila bilan tanishishimiz tafsilotlari bilan davom ettiramiz.

O'zbekiston Mahallalar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan "Mahalladagi kitobxon" respublika ko'rik-tanlovinin g'olibini qidirib, Nurobodning Xalqobod mahallasiga bordik. Oddiy xonadonda yashovchi oddiy oila. Ota - Ilhom Safarov veterinar, ona esa uy bekasi ekan. Bu oilaning o'ziga xosligi shundaki, 5 nafar farzandning bari viloyat va respublikaga tanilgan kitobxonlar. Bizning qahramon qiz esa ularning eng kenjasi, endigina maktabning 8-sinfiga o'tgan Shabnam Toshmurodova.

Oilaboshiga barchamizni qiziqtirayotgan savolni berdik. U "ish"ni katta farzandidan boshlaganini, keyin u ukalarini "tortib" ketganligini aytdi.

— Bolalarga avval yengilroq ertak kitoblarni o'qitdik, - deydi Ilhom aka. - O'qib tugatilgan har bir kitob va maktabdagi yaxshi baholar uchun sovg'a bor edi, albatta. Vaqt o'tishi bilan ularning o'zi jarayonga berilib ketdi. Hatto dasturxon boshida ham kitoblar muhokama qilinadigan bo'ldi. Tonggacha kitob o'qib, uxlamay chiqishsa, urushaman. Lekin biz uchun odatiy holga aylangan. Menimcha, yutug'imiz bolalarni mutolaaga majburlab emas, qiziqtirib olib kirganimiz bo'lgan.

Oilaning to'ng'ich farzandi Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetini tamomlab, tuman hokimligida ish boshlagan. Keyingilari ham turli nufuzli oliygo'harlarning talabalari. Shabnam esa mahallasidagi 3-IDUMda o'qiydi. U asosan jahon adabiyoti durdonalarini mutolaa qilishni yaxshi ko'radi. Hozir u o'qiyotgan kitoblarning asosiy qismi aka va opalaridan qolgan. Yangi kitoblarni qayerdan olasan, degan savolimizga tuman markazi yoki Samarqand shahriga borganimizda olib kelamiz, deya javob berdi. Tuman markazi mahalladan 10 kilometr uzoqlikda, shaharni tasavvur qilavering. Shu bois ular keyingi vaqtda faqat elektron kitoblardan foydalanishga majbur bo'lishayotgan ekan. Ammo uning zavqi haqiqiy kitobnikidek bo'lmasligi va insonni tez toliqtirishini biz aytmasak ham bilasiz.

Mana, o'qiyman degan inson sharoitsizlikda ham o'qiyapti ekan-ku, degan xulosani berish fikridan yiroqmiz. Bizni o'yantirayotgani - agar shu hududda yoki mahallada yaxshi bir kutubxona bo'lsa, balki qahramonimiz bundanda kattaroq natijalarga erisharmidi? Hech bo'lmaganda, unga havas qilgan ayrim ota-onalar bolalariga kitob o'qishni o'rgatarmidi?

Kitobxonlar xonadonidan shunday o'y bilan chiqib, mahalla yoshlariga ma'rifat ulashishi mumkin bo'lgan joylarni qidiridik. Mahalla fuqarolar yig'ini binosi eski bo'lsa-da, katta, xonalari ko'p ekan. Balki shu yerda yoshlar uchun biror to'garak yoki kutubxona tashkil qilingandir deb o'yladik.

— Bir necha yildirki, farzandi biror yutuqqa erishgan yoki oliy o'quv yurtiga kirgan ota-onalarga tashakkurnoma va sovg'alar topshirishni yo'lga qo'yganmiz, - deydi mahalla raisi Qo'ziyoy Hamroyev. - Shu orqali boshqalarni ham farzandini qo'llab-quvvatlash, ularga bilim olishi uchun zarur sharoit yaratishga qiziqiryapmiz. Mahalla kutubxonasi uchun ham binodan katta bir zalni ajratib qo'yganmiz. Faqat mablag' yo'qligi sababli uni ta'mirlash va zarur jihozlarni olishning imkoni bo'lmayapti. Mahalla budjetida to'plangan 20 million so'm bilan bu ishni eplab bo'lmaydi.

Mahalladagi 3-IDUMga borganimizda eshiklari yopiq ekan. Direktorga qo'ng'iroq qilinganidan keyingina ta'lim maskanining qorovuli va kutubxonachisi yetib keldi. Ma'lumotga ko'ra, undagi kutubxonada 1226 ta kitob saqlanadi va ularning asosiy qismi darsliklar. Kutubxonachidan bolalar kitob olgani keladimi, deb so'raganimizda, u "ha" deya javob berdi, lekin buni tasdiqlaydigan biror qaydnomani ko'rsata olmadi.

Afsuski, bu birgina shu mahalladagi vaziyat emas. Bugungi avlod mahallani ma'lumotnoma beradigan



joy, maktabni esa faqat dars o'tiladigan va davomat yuritiladigan maskan sifatida tasavvur qilmoqda. Aslida ma'rifat shu yerdan boshlanishi, yosh avlod ta'tilda ham unga oshiqishi kerak emasmi?

Rais ham kichikroq bo'lsa-da, bir makonning hokimi. Aqlli hokim hududni rivojlantirish uchun birinchi navbatda fuqarolarning dunyoqarashini kengaytirish, bilim va ma'naviyatini oshirish kerakligini yaxshi biladi. Kitobsiz ilmu ma'rifatga erishishni, ilmiy ma'rifatsiz esa to'kis jamiyat qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Hamma narsa insonlarning bilimiga, ma'naviy kamolotiga bog'liq bo'ladi. Ishni shundan boshlagan mahalla raislarini tanijmiz. Ular bugun biror yangi loyihaga qo'l ursa, mahalla-ko'y bir bo'lib, yordamga keladi. Omadi yurishib, boyib ketganlari ham markaz yo' xorijdan uy olib, ko'chib ketishni o'ylamaydi. Bolalari shu mahallada, shu muhitda ulg'ayishini istaydi. Shunday ekan, yuqoridagi gaplar faqat mahalla raislarigagina tegishli emas. Farzandi ma'rifatli bo'lishi, hech bo'lmasa, shunday muhitda ulg'ayishini istagan insonlar ham chetda tomoshabin bo'lib o'tirmasligi kerak.

Bu bilan mahallalarda kitobxonlik rivojlanmayapti demogochi emasmiz. O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasidan olingan ma'lumotga ko'ra, shu kunlarda viloyatdagi 380 dan ortiq mahallada kutubxona mavjud. Shundan 18 tasi viloyat adliya boshqarmasining "Ziyo ulash" aksiyasi doirasida tashkil etilib, namunaviy shaklda jihozlangan. Kutubxonani o'zlar, imkoniyatlaridan kelib chiqib qurganlar ham oz emas. Xususan, Samarqand shahridagi Mir Said Baraka mahallasiga borganimizda, ochig'i, hashar yo'li bilan qurilgan yorug' va shinam kutubxonani ko'rib, havasimiz keldi. To'g'ri, unda hali kitoblar kamdir, lekin biz ogohlantirmay borgan holatda ham ziyo maskanida yoshlarni ko'rganimizdan xursand bo'ldik. Ma'lumotingiz uchun, bu mahalla shaharning qoq markazida, kitob do'konini topish muammo bo'lmaydigan joyda joylashgan. Lekin kutubxonaning o'rni boshqa.

Mahalla raislarining biridan intervyu olayotib, hududingizda jinoyatchilik sodir etilmasligining siri nimada, deb so'raganimda, u "Ma'rifat g'alaba qozongan joyda o'g'rilar ham insofli bo'ladi", degan edi. Buni hazil sifatida qabul qilganman. Mulohaza qilib ko'rsam, o'shanda rais men bilan qimmatli tajribasini bo'lishgan ekan. Bugun men uni siz bilan bo'lishdim.

Asqar BAROTOV.

Ishxonamiz yonida ancha paytdan buyon bir maktab o'quvchisi gazli suv sotadi. U yosh bo'lishiga qaramay, oilasiga foyda keltiryapti va asosiy-si mustaqil hayotga ko'nikma hosil qilyapti. Sarvar Toshtemirov Samarqand shahridagi Ko'ksaroy mahallasida tug'ilgan, 10-sinf o'quvchisi.

Suv sotib, pul topayotgan o'quvchi

- Otam maktabda o'qituvchi, onam esa tikuvchilik bilan shug'ullanadi, - deydi Sarvar. - Uch yil oldin otamdan gazli suv tayyorlaydigan uskuna olib berishlarini va men ham pul topishni o'rganishimni aytgandim. Otam taklifimni ma'quulladilar va mahalla markazida qiyomli gazli suv sotishni yo'lga qo'ydi.

Bu yil suv sotishni mart oyidan boshladim. Savdo odatda oktabrgacha, kunlar iliq bo'lsa, noyabrgacha ham davom etadi. Darsdan bo'sh vaqtimda, yozgi ta'til davrida shu ish bilan shug'ullanaman, haftada ikki kun ingliz tili kursiga qatnayman. Ishlagan pulimning asosiy qismini repetitorga bera-man, ortgani ro'zg'orga ketadi. Ayni kunlarda odam ko'p va gazli suv tayyorlashga ketadigan xarajatlardan tashqari, kuniga 150 ming so'mgacha pul topyapman.

Xo'sh, sizning maktabda o'qiyotgan farzandingiz hozir nima bilan mashg'ul? Sarvardan uning tengdoshlari, otasidan esa

barcha ota-onalar o'rnak olsa arziydi. Chunki ota farzandning qiziqishlarini qo'llab-quvvatladi, unga ishonch bildirdi va bu o'z samarasini bermoqda. Hindistonlik Sundar Pichay ismli yigit AQShning Stenford universitetida o'qish uchun grant yutadi. Biroq Hindistondan u yerga uchib borishga mablag'i bo'lmaydi. Shunda otasi o'zining qariyb bir yillik maoshiga teng pulga unga chipta olib beradi. Yigit umrida birinchi marta samolyotga chiqib, AQShga uchib ketadi. 2015-yilda Sundar Pichay jahonning eng boy kompaniyalaridan biri Google shirkatining bosh direktori etib tayinlanadi. 2019-yilda uning yillik maoshi 281 million dollarga teng bo'lgan. Otaning bir paytlar farzandining kelajagi uchun ko'rsatgan jasorati uning hayotida tamal toshi bo'ldi va o'z mevasini berdi.

Shuning uchun eng yaxshi sarmoya bu farzand kelajagi uchun tikilgan sarmoyadir.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

"Ustozga ehtirom"

Toshkent shahridagi "Tafakkur qanoti" nashriyotida Hasan Choriyev muallifligida chop etilgan shu nomdagi kitob zukko muallim, fidoyi inson Fayzulla Boltayev hayoti, faoliyati haqida.

Fayzulla Boltayev 1931-yil Nurobod tumanining Ag'ron qishlog'ida tug'ildi, shu qishloqda o'sib-ulg'aydi. Tengdoshlari qatori yetti yillik maktabni bitirgach, pedagogika texnikumida o'qishni davom ettirdi. Bilim yurtini tugatib, Ag'ronidagi 36-maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lib ishlay boshlaydi. Ish faoliyati davomida qishloq bolalarini savodli qilishga intildi, yuzlab shogirdlar tayyorladi.

Kitobdan ana shu jonkuyar ustozdan saboq olgan insonlarning xotiralari o'rin olgan.

Boborahmat MUHAMMADIYEV,
Nurobod tumanidagi 57-maktab
o'qituvchisi.



Men qishloqda to'y-marakalarda bo'laman, odamlarning odob-axloqini kuzataman. Negadir keyingi paytlarda odamlar o'rtasida odob yo'qolib borayotgandek. Kishilar bir-biriga nisbatan qo'pol munosabatda bo'ladi, ba'zan hazil gapni ham ko'tara olmaydi.

Go'zallik to'yda, odob doim kerak

Turizm sohasidagi oliy ta'lim uch yillik bo'ladi

16-iyul kuni davlatimiz rahbari hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Ta'kidlanishicha, turizm va mehmonxona xo'jaligi sohasida o'quv dasturlari jahon reytingida birinchi 100 talikka kiruvchi ta'lim muassasalarining tajribasi asosida takomillashtiriladi. Bu sohada oliy ta'lim to'rt yillikdan uch yillikka o'tkaziladi. Talabalarga bir vaqtning o'zida ixtisosligi bo'yicha ishlab, kasbiy ko'nikmalarini bevosita ish joylarida rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Andijon, Buxoro, Samarqand va Urganch davlat universitetlari, Sharqshunoslik, Jahon tillari va "Ipak yo'li" oliygo'harida gidlarni tayyorlash kurslari tashkil etiladi.



Men tengi keksalar yoshlarning odobsizligidan kuyunib gapirishadi. Hatto ba'zi rahbarlar ham odamlar bilan munosabatda qo'pol so'zlar ishlatadi. Masalaning yechimini xushmuomalalik bilan hal qilishni bilmaydi.

Bunday kimsalarning tarbiyasizligidan ranjiyman. Nega odamlar kundan kunga jizzaki, urushqoq, odobsiz bo'lib ketyapti? Axir insonni hayvondan ajratadigan narsa odob emasmii? Alloh yer yuzidagi jamiki jonzodlar ichida insonni mukammal va mukarram qilib yaratdi. Inson odobi bilan aziz, buni hech qachon unutmaslik kerak.

Turdi TURSUNOV,
mehnat faxriysi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 667 nuxxada chop etildi. Buyurtma 379. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda